



Published on *Xalq Banki* (<http://xb.uz>)

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari

Yangilangan sana: Ju, May, 4, 2018

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan hozirgi vaqtda quyidagi xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bo'yicha xizmatlar taklif etiladi.



Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bo'yicha xizmat ko'rsatish shoxobchalarining keng rivojlangan tarmog'i Sizga davlatimizning istalgan joyidan, istalgan yo'nalishda Siz uchun qulay vaqtda pul o'tkazmasini jo'natish va qabul qilishda yordam beradi.

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari ish faoliyati haftaning dushanba-juma kunlari soat 08:00 dan 17:00 gacha yo'lga qo'yilgan.

Pul o'tkazmasini jo'natish uchun Sizga quyidagilar kerak bo'ladi:

- Istalgan Bank bo'limiga murojaat qilish;
- Shaxsni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish;
- Oluvchining F.I.Sh. ini aytish (qo'shimcha ma'lumot oluvchining telefon raqami)
- Oluvchi pulni qabul qilib olishi mumkin bo'lgan davlatni tanlash.

Shu bilan birga, pul o'tkazmasini chet elga yuborayotganda, o'tkazma summasi va Bank vositachilik haqini milliy valyuta - So'mda to'lashingiz (naqd pulda yoki bank plastik kartalari orqali), oluvchi bo'lsa uni chet el valyutasida qabul qilib olishi mumkin.

Pul o'tkazmasini qabul qilish uchun Sizga quyidagilar kerak bo'ladi:

- Shaxsni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish;
- Operatorga pul o'tkazmasining nazorat kodi, summasi va valyutasini taqdim qilish;
- Pul o'tkazmasini qabul qilish

Shu bilan birga, chet eldan kelgan pul o'tkazmasini o'z ihtiyoringizga ko'ra qisman yoki to'liq miqdorda milliy valyuta - So'mda qabul qilib olishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefon: (+998 71) 200 00 55, 120 17 66

Links

[1] <http://xb.uz/uz/info/zolotaya-korona-xalqaro-pul-otkazmalari-tizimi>

[2] <http://xb.uz/uz/info/contact-xalqaro-pul-otkazmalari-tizimi>

[3] <http://xb.uz/uz/info/unistream-xalqaro-pul-otkazmalari-tizimi>